

Badalova Maqsuda Umarovna
A.Avloniy nomidagi PMMI rektor
maslahatchisi
umaksuda_69@gmail.com

Eshmuminova Oybachin Botirovna
A.Avloniy nomidagi PMMI tayanch
doktoranti
eshmuminovaoybachin@gmail.com

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM TIZIMI FAOLIYATIDA DOLZARB MASALALAR VA ULARNING YECHIMI

Annotatsiya. Ushbu maqola respublikamizdagi maktabdan tashqari ta'limni takomillashtirish, yangi bosqichga olib chiqish masalasiga qaratilgan. Shuningdek, "Kelajak" markazlarining asosiy vazifalari etib belgilab ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: maktabdan tashqari ta'lim, norasmiy ta'lim, "Barkamol avlod" bolalar maktablari.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И ИХ РЕШЕНИЕ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СИСТЕМЫ ВНЕШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Данная статья посвящена совершенствованию системы внешкольного образования в нашей республике и выводу её на новый этап развития. В ней также определены основные задачи центров "Келажак".

Ключевые слова: внешкольное образование, неформальное образование, детские школы "Баркамол авлод".

CURRENT ISSUES IN THE ACTIVITIES OF THE OUT-OF-SCHOOL EDUCATION SYSTEM AND THEIR SOLUTIONS

Annotation. This article is devoted to improving the system of extracurricular education in our republic and bringing it to a new stage of development. It also defines the main tasks of the "Kelajak" centers.

Keywords: extracurricular education, non-formal education, "Barkamol Avlod" children's schools.

Kirish. Bugungi kunda ta'limni faqatgina maktab doirasida emas, balki, maktabdan tashqarida ham rivojlantirish zarur. Yosh avlodning sport, san'at va innovatsion texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganligi buning zaminidir. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari jamiyat taraqqiyotida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish, kasbga yo'naltirish hamda mustaqil hayotga tayyorlash, jismoniy va ma'naviy tarbiya, ijtimoiy faollikni oshirish kabi o'quvchi-yoshlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tizim o'quvchi yoshlarning maktabdan tashqari vaqtini to'g'ri yo'naltirish, ularni zararli odatlar hamda turli xildagi g'ayrioddiy harakatlar sodir etishdan asrash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbilash, liderlik, jamoda ishlash va hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, sog'lom va bilimli avlodni shakllantiruvchi muhim omildir.

Ammo ushbu tizim ham o'zining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda bir qancha muammo va kamchiliklardan holi emas. So'ngi yillarda olib borgan tadqiqotlarimizda Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyati "Barkamol avlod" bolalar maktabi rahbarlari qatnashdilar hamda o'rganish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

1. Moddiy texnik bazaning yetarli emasligi: ko'plab to'garaklar va markazlarda zamonaviy jihozlar, asbob-uskunalar, sport anjomlari yetarli darajada emas, bu esa o'quvchilarning to'laqonli shug'ullanishiga to'sqinlik qiladi.

2. Malakali kadrlarning yetishmasligi: ayrim hududlarda o'z sohasining mutaxassislari yetishmaydi natijada mashg'ulotlarning samaradorligi pasayadi.

3. O'quv dasturlari eskirganligi: o'quv qo'llanmalarining yetishmasligi, innovatsion yondashuvlar yetarli darajada emasligi dars sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

4. Moliyalashtirish masalalari: maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari doimiy ravishda yetarli mablag' bilan ta'minlanmaganligi uchun faoliyatini kengaytirishda qiyinchiliklarga duch keladi degan fikrdamiz.

Tadqiqot doirasida aniqlangan muammolar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish taqazo etadi.

Kuni kecha Prezidentimiz maktabdan tashqari ta'limni yangi bosqichga olib chiqish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha qarorini imzoladi.

Unda yurtimizdagi 219 ta "Barkamol avlod" bolalar maktabi, "Yoshlik" sport jamiyati, O'quvchi yoshlar markazi hamda O'zbekiston bolalar tashkiloti negizida respublika, hudud va tumanlarda "Kelajak" markazlari tashkil etilishi haqida aytib o'tildi.

Yangi markazlar endilikda umumta'lim maktablari bilan uzviy va maqsadli tadbirlarni jonlantirib, muhandislik, ilm-fan, madaniyat, san'at, kitobxonlik, sport va ekologiya yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarni to'garaklarga jalb qiladi. Natijada yosh avlodni kasbga yo'naltirish, ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, sog'lom va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlari uchun yangi shart-sharoitlar yaratishda maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirishning asosiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi sonli "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-277 qarori tizimda mavjud dolzarb muammolarning yechimi bo'lib xizmat qiladi.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi "Barkamol avlod" Respublika bolalar maktabi hamda Respublika o'quvchi-yoshlar markazi negizida Respublika "Kelajak" markazi tashkil etildi.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini malakali pedagoglar bilan ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2023 yildagi PF-79-son farmoniga asosan 2024-yil 1-yanvardan boshlab pedagogik kasblariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash hamda malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilindi [1].

"Kelajak" markazlariga shartnoma asosida malakali mutaxassislar hamda nodavlat o'quv markazlari jalb etiladi.

Maktab 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga ularning har tomonlama kamol topishlari va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, pullik xizmatlar ko'rsatib kelmoqda. To'garaklarga nafaqat ushbu ko'rsatkichdagi bolalar balki, pullik xizmat asosida undan kichik va katta yoshdagilar ham jalb etilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 7-iyundagi "Xalq ta'limi tizimida maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" [2] 175-sonli buyrug'iga asosan:

1. "Ijtimoiy himoya"ga muhtoj oila farzandlari, mehribonlik uylari va Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilari, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilari va ichki ishlar organlarining profilaktik hisobiga olingan o'quvchilar "Barkamol avlod" bolalar maktablarida o'qiganlik uchun ota-onalar to'lovidan ozod qilinganligi;

2. Texnik ijodkorlik yo'nalishidagi to'garaklar uchun ota-onalar to'lovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va toshkent shahar maktablarida 25%, tuman (shahar) maktablarida 20% etib belgilanganligi;

Agar maktabga oiladan bittadan ortiq bola qatnashsa, ularning har biri uchun o'qiganlik to'lovi 70%, to'garak a'zosi maktabda tashkil etilgan bittadan ortiq to'garakka a'zo bo'lgan taqdirda 60%i to'lanishi mumkinligi belgilab o'tilgan.

"Kelajak" markazlarida esa, ota-onalar badali to'lovi miqdorlarini ota-onalar bilan kelishgan holda Respublika bo'yicha belgilangan minimal miqdorlarga nisbatan oshirish;

Ota-onalar badali to'lovi mablag'larini mustaqil yo'naltirish hamda 2026-yil 1-yanvardan boshlab "Kelajak" markazlarida o'qiganlik uchun ota-onalar badali to'lovining minimal miqdorlari qayta ko'rib chiqilishi belgilangan.

Maktabga belgilangan tartibda muassis tomonidan tayinlanadigan direktor rahbarlik qiladi va uning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

"Kelajak" markazlarida rahbar lavozimlarini strategik fikrlash, zamonaviy bilim va ko'nikmalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, tashabbuskor va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan munosib nomzodlar orasidan to'ldirish choralari ko'rilishi belgilab berilgan.

Kontingent soni 600 nafargacha bo'lgan "Kelajak" markazlari-II guruhga, 601 nafar va undan ortiq bo'lganda I-guruhga tegishli hisoblanadi;

Respublika "Kelajak" markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri "Kelajak" markazlari direktori va direktor o'rinbosarlari bazaviy tarif stavkalari I va II guruhdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari tegishli lavozimlari bo'yicha bazaviy tarif stavkalariga tenglashtiriladi;

Tuman (shahar) "kelajak" markazlari direktori va direktor o'rinbosarlari bazaviy ta'rif stavkalari I va II guruhdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari tegishli lavozimlari bo'yicha bazaviy tarif stavkalarining 90 foiziga tenglashtiriladi;

Menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan "Kelajak" markazlari direktor va direktor o'rinbosarlariga sertifikatning amal qilish muddati davomida 50 foiz va 30 foiz miqdorida qo'shimcha ustamalar to'lanadi;

"Barkamol avlod" bolalar maktabida to'garak mashg'ulotlarining tashkil etilishi uchun haftada 6 akademik soat ajratiladi. 6 yoshli bolalar uchun olib boriladigan to'garak mashg'ulotlari vaqti 35 daqiqa etib belgilangan va u haftada 2 akademik soatdan oshmasligi lozim.

"Kelajak" markazlarida esa, to'garak rahbarining haftalik ish yuklamasi 16 soatni tashkil etadi. Bunda markazda har bir to'garak mashg'ulotini tashkil etish uchun haftada 4 akademik soat ajratiladi.

"Kelajak" markazlari direktorlari faoliyati eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) "Kelajak" markazlaridagi to'garaklar faoliyati zamonaviy va yagona dastur asosida tegishli yo'nalishlarga bosqichma-bosqich ixtisoslashtiriladi;

Inklyuziv to'garaklarga jalb qilingan pedagoglarga mehnatning alohida sharoitlari uchun lavozim maoshining 30 foizi miqdorida har oyda ustama haq to'lanadi;

"Kelajak" markazlariga ular tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarni o'tkazishda tegishli hududdagi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlar markazlari bin ova inshootlaridan bepul foydalanishga ruxsat etiladi. [3,4]

2025-yil 1-oktabrdan tegishli viloyatlar va Toshkent shahri bolalar kutubxonalarining 182 ta shtat birligi "Kelajak" markazlariga o'tkazildi.

Tuman (shahar) "Kelajak" markazlariga markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati tomonida xizmat ko'rsatish to'xtatiladi va tuman (shahar) "Kelajak" markazlarida ajratilgan shtat birliklari doirasida buxgalter lavozimi joriy etiladi.

"Kelajak" markazlarini saqlash bilan bog'liq harajatlar Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

"Kelajak" markazlarining asosiy vazifalari etib:

-maktabdan tashqari ta'lim tizimiga o'quvchi-yoshlarni keng jalb qilish, o'qitishning mazmun va sifatini oshirish maqsadida zamonaviy hamda innovatsion yondashuv asosida to'garaklarni tashkil etish hamda ularning faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish;

-bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun barqaror, samarali va inklyuziv muhit yaratish, ularda yetakchilik, faol fuqarolik va jamoda ishlash, ijtimoiy ma'suliyat va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, ilmiy, texnik va raqamli savodxonlikni oshirish;

-o'quvchilarning tarixiy bilimlarini mustahkamlash, ularni vatanga sadoqat, madaniy meros hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

-ta'lim tashkilotlarida "Kelajak" nomi ostida tarbiyaviy-axloqiy, ma'naviy-mafkuraviy, ijtimoy-kommunikativ yo'nalishlarda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan hamda ekologik va madaniy loyihalarni amalga oshirish belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 277-son qarori.

2. 2025-yil 15-maydagi Prezident Sh.Mirziyoyev boshchiligida o'tkazilgan "Maktab ta'limini tubdan isloh qilish" vedioselektori

3. A.Radjiyev, F.Karimov, M.Badalova. "Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garaklar faoliyatini takomillashtirish, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik mexanizmini rivojlantirish mavzulari bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan tahliliy hisobot". 2022-yil.

4. "Yangi o'zbekistonda boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" xalqaro ilmiy - amaliy anjumani 17-18 May 2024 yil.